XALQ DEPUTATLARI KOSONSOY TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-14-133-6-80-K/25 Kosonsoy tumani

Kosonsoy tumanida 2026-yil uchun yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun bazaviy soliq stavkalarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 28-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalariga muvofiq, 2026-yil uchun yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash yuzasidan tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i A.Xolmatovning bergan hisobotini tinglab, mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi a’zo deputatlarning bildirgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman soliq inspeksiyasi A.Xolmatovning Kosonsoy tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2026-yil uchun yer solig'i stavkalarini tasdiqlash yuzasidan bergan taklifi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Namangan viloyati bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yuridik shaxslarning 1 gektar yeri uchun 35,200 mln.so‘m hamda jismoniy shaxslarning 1 kvadrat metr yeri uchun 330 so'm bazaviy soliq stavkalari bo‘yicha taklif kiritilganligi (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun shahar va tumanlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig‘i stavkasiga 0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo'llagan holda yer solig‘i stavkalarini belgilashi mumkinligi yuzasidan ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda press klublar va chiqishlarni amalga oshirish orqali ommaga taqdim etish;

belgilangan yer solig'i stavkalariga(yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun, ularning hududlarida joylashgan daha, mavze, mahalla, ko'cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha

kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo'llashlari yuzasidan ma’lumotlarni ta'minlab berilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekistan Respublikasi Soliq kodeksiga asosan:

- Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i Kosonsoy tumanida qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha bazaviy soliq stavkasi 0.1 gektar uchun mutloq o‘lchamda 5 698 000,0 (besh million olti yuz to‘qson sakkiz ming) so‘m;

- Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i (bundan dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlar mustasno) Kosonsoy tumanida bazaviy soliq stavkasi 1 kv.m. uchun mutloq o‘lchamda 463,00 (to‘rt yuz oltmish uch) so‘mda belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasiga qarab, soliq yukini kelgusi yilda keskin ortib ketishini oldini olish maqsadida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun Soliq kodeksida belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan jismoniy shaxslar uchun 1-ilovaga muvofiq hamda yuridik shaxslar uchun 2-ilovaga muvofiq kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar belgilansin.

4. Tuman Soliq inspeksiyasi hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi hamda tuman hokimligining 2026-yil uchun belgilangan mahalliy byudjet prognozidan kelib chiqib, tuman bo‘yicha 2026-yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarining mutlaq miqdorlariga nisbatan kamaytiriluvchi va oshiriluvchi koeffitsientlarni qo‘llash bo‘yicha takliflari inobatga olinsin.

5. 2026-yil uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga 2026-yil uchun qo‘llaniladigan koeffitsientlar 3-ilovaga hamda noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga 2026-yil uchun qo‘llaniladigan koeffitsientlar 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. 2026-yil uchun Yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari 5-ilovaga asosan va mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan koeffisientlar 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. Tuman moliya bo‘limi (Y.Kamolov) 2026-yil uchun ishlab chiqilgan resurs soliqlarini yanada takomillashtirish bo‘yicha soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlari asosida ish tashkil etsin.

8. Tuman moliya bo‘limi (Y.Kamolov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (A.Xolmatov) bilan birgalikda ushbu qarorning ilovalariga muvofiq soliq

stavkalari, soliqqa solish tartib-taomillari hamda boshqa masalaga oid ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini ta’minlasin.

9. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (A.Xolmatov):

-Yer solig‘i bo‘yicha tasdiqlangan soliq stavkalarini 2026-yil 10-yanvarga qadar barcha soliq to‘lovchilarga soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali yetkazilishini ta’minlash;

-O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib, soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda o‘z vaqtida budjetga undirilishini nazoratga olib borish;

-tegishli budjetning ijro etilishi jarayonida unga tushumlarni ko‘paytirish bo‘yicha qo‘shimcha zaxiralarni aniqlash;

-yer solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali tashkil etib borish vazifasi yuklansin.

10. Ushbu qaror qabul qilinganligi munosabati bilan, Xalq deputatlari Kosonsoy tuman Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-3-011-6-80-K/24-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

11. Tuman hokimligi axborot xizmati (R.Temirov) va “Kosonsoynoma” gazetasida mazkur soliq stavkalari to‘g‘risida ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

12. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

13. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari E.Toshpulatov hamda bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi J.Abdullayev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **KADIROV DILMUROD GAFUROVICH**

Xalq deputatlari Kosonsoy tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-14-133-6-80-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha Kosonsoy tuman kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsientlar

№	MFY nomi	Jismoniy shaxslar bo‘yicha,1 kv.m uchun (turar joylar uchun belgilangan o‘sish me’yoridan oshmagan holda)	
		Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025 yil uchun (so‘mda)
1.	Bo‘ston MFY	0,85	373,87
2.	Yuksalish MFY	0,79	347,48
3.	Buloqboshi MFY	0,71	312,29
4.	Fayzobod MFY	0,70	307,90
5.	Bog‘ishamol MFY	0,90	395,87
6.	Bog‘i baland MFY	0,80	351,88
7.	Yoshlik MFY	0,71	312,29
8.	Bog‘ ko‘cha MFY	0,81	356,28
9.	Namuna MFY	0,84	369,47
10.	Bahoriston MFY	0,70	307,90
11.	Alisher Navoiy MFY	1,05	461,84
12.	Abduraxmon Jomiy MFY	1,05	461,84
13.	Guzar MFY	0,81	356,28
14.	Bog‘ MFY	0,81	356,28
15.	Gulbog‘ MFY	0,84	369,47
16.	Gulobod MFY	1,05	461,84
17.	Olmazor MFY	0,86	378,27
18.	Ozod MFY	0,91	400,26
19.	Obodon MFY	0,76	334,29
20.	Obod MFY	0,92	404,66
21.	Nurafshon MFY	0,82	360,68
22.	Navruz MFY	0,97	426,65
23.	Navbahor-1 MFY	0,97	426,65
24.	Yangi O‘zbekiston MFY	0,72	316,69
25.	Go‘rmiron MFY	0,89	391,47
26.	Movorounnaxr MFY	0,97	426,65
27.	Majnuntol MFY	0,84	369,47
28.	Kushon MFY	0,91	400,26

29.	Ququmboy MFY	0,89	391,47
30.	Qorasuv MFY	0,76	334,29
31.	Iftixor MFY	0,85	373,87
32.	Istiqlol MFY	0,85	373,87
33.	Zamondosh MFY	0,86	378,27
34.	Jar MFY	0,92	404,66
35.	Maxdumi A′zam MFY	0,92	404,66
36.	Do‘stlik MFY	0,84	369,47
37.	Soy bo‘yi MFY	0,80	351,88
38.	Yangi Shahar MFY	0,70	307,90
39.	Yangi yo‘l MFY	0,70	307,90
40.	Shirin buloq MFY	0,85	373,87
41.	Shayxon MFY	0,93	409,06
42.	Chust ko‘cha MFY	0,92	404,66
43.	Chorbog‘ MFY	1,07	470,64
44.	Chak MFY	0,78	343,08
45.	Xurriyat-1 MFY	1,07	470,64
46.	Sa’diy Sheroziy MFY	1,07	470,64
47.	Xonqo‘rg‘on MFY	0,70	307,90
48.	O‘rta ko‘cha MFY	0,82	360,68
49.	O‘rikzor MFY	0,92	404,66
50.	Uzunqishloq MFY	0,84	369,47
51.	O‘zbekiston MFY	0,70	307,90
52.	Taxta ko‘prik MFY	0,83	365,08
53.	Tagijar MFY	0,92	404,66
54.	Soycha MFY	0,85	373,87
55.	Uchqo‘rg‘on MFY	0,84	369,47
56.	Ravot MFY	0,82	360,68
57.	Guliston -1 MFY	1,00	439,85
58.	Sadacha MFY	1,00	439,85
59.	Soxibkor MFY	0,85	373,87

Xalq deputatlari Kosonsoy tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-14-133-6-80-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha Kosonsoy tuman kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsientlar

№	MFY nomi	*Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 ga yer maydoni uchun*	
		Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025 yil uchun (so‘mda
1.	Bo‘ston MFY	0,82	4 672,36
2.	Yuksalish MFY	0,80	4 558,40
3.	Buloqboshi MFY	0,70	3 988,60
4.	Fayzobod MFY	0,76	4 330,48
5.	Bog‘ishamol MFY	0,82	4 672,36
6.	Bog‘i baland MFY	0,74	4 216,52
7.	Yoshlik MFY	0,70	3 988,60
8.	Bog‘ ko‘cha MFY	0,73	4 159,54
9.	Namuna MFY	0,84	4 786,32
10.	Bahoriston MFY	0,70	3 988,60
11.	Alisher Navoiy MFY	1,00	5 698,00
12.	Abduraxmon Jomiy MFY	1,00	5 698,00
13.	Guzar MFY	0,74	4 216,52
14.	Bog‘ MFY	0,79	4 501,42
15.	Gulbog‘ MFY	0,74	4 216,52
16.	Gulobod MFY	0,92	5 242,16
17.	Olmazor MFY	0,76	4 330,48
18.	Ozod MFY	0,80	4 558,40
19.	Obodon MFY	0,74	4 216,52
20.	Obod MFY	1,00	5 698,00
21.	Nurafshon MFY	0,80	4 558,40
22.	Navro‘z MFY	0,90	5 128,20
23.	Navbahor-1 MFY	0,90	5 128,20
24.	Yangi O‘zbekiston MFY	0,73	4 159,54
25.	Go‘rmiron MFY	0,82	4 672,36
26.	Movorounnaxr MFY	0,95	5 413,10
27.	Majnuntol MFY	0,74	4 216,52

28.	Kushon MFY	0,83	4 729,34
29.	Qo‘qumboy MFY	0,80	4 558,40
30.	Qorasuv MFY	0,72	4 102,56
31.	Iftixor MFY	0,77	4 387,46
32.	Istiqlol MFY	0,76	4 330,48
33.	Zamondosh MFY	0,77	4 387,46
34.	Jar MFY	0,82	4 672,36
35.	Maxdumi A′zam MFY	0,82	4 672,36
36.	Do‘stlik MFY	0,82	4 672,36
37.	Soy bo‘yi MFY	0,74	4 216,52
38.	Yangi Shahar MFY	0,72	4 102,56
39.	Yangi yo‘l MFY	0,71	4 045,58
40.	Shirin buloq MFY	0,73	4 159,54
41.	Shayxon MFY	0,76	4 330,48
42.	Chust ko‘cha MFY	0,76	4 330,48
43.	Chorbog‘ MFY	0,94	5 356,12
44.	Chak MFY	0,73	4 159,54
45.	Xurriyat-1 MFY	0,84	4 786,32
46.	Sa‘diy Sheroziy MFY	0,90	5 128,20
47.	Xonqo‘rgon MFY	0,70	3 988,60
48.	O‘rta ko‘cha MFY	0,78	4 444,44
49.	O‘rikzor MFY	0,81	4 615,38
50.	Uzunqishloq MFY	0,73	4 159,54
51.	O‘zbekiston MFY	0,70	3 988,60
52.	Taxta ko‘prik MFY	0,72	4 102,56
53.	Tagijar MFY	0,81	4 615,38
54.	Soycha MFY	0,72	4 102,56
55.	Uchqo‘rgon MFY	0,72	4 102,56
56.	Ravot MFY	0,72	4 102,56
57.	Guliston -1 MFY	0,88	5 014,24
58.	Sadacha MFY	0,86	4 900,28
59.	Soxibkor MFY	0,74	4 216,52

Xalq deputatlari Kosonsoy tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-14-133-6-80-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga 2026-yil uchun qo‘llaniladigan koeffitsientlar

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alko golli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1	_Kosonsoy tumani	1.1	1.1	1.1	1.1	1.1	1.1	1.1	1.1

Izox: *(qishloq ho‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respub likasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)*

Xalq deputatlari Kosonsoy tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-14-133-6-80-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga 2026-yil uchun qo‘llaniladigan koeffitsientlar

T/r	**Tuman va shaharlar nomi**	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh chig‘anoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohak toshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, gra nodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabaz porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktosh dan bloklar	Marmar	Granit lar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G‘isht cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag‘al aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
1	Kosonsoy Tumani	1.2	1.2	1.2	1.2	1.2	1.3	1.3

Xalq deputatlari Kosonsoy tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-14-133-6-80-K/25 -son qaroriga
5-ilova

Yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari

T/r	**Tuman va shaharlar nomi**	**Koeffisient**	**Mutloq miqdor** (so‘mda)
4	Kosonsoy tuman	1.00	1 300 000

Xalq deputatlari Kosonsoy tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-14-133-6-80-K/25 -son qaroriga
6-ilova

Mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan koeffisientlar

T/r	**Ijara ob’ekti turlari**	**Koeffisient**	**Soliq miqdor** *(so‘mda)*
1	Turar joylar uchun	1,31	7 205,0 *(1 kv metr uchun)*
2	Noturar joylar uchun	1,20	*12 000 (1 kv metr uchun)*
3	Engil avtomobil uchun	1,17	1 050 000
4	Avtobuslar va yuk avtomobillari uchun	1,0	1 750 000